

# Rasmiy munosabat

Joriy yil 6-noyabr kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “sayyor qabulga yordam so‘rab kelgan fuqaroni hokimiyat vakillari aldab, ruxiy-asab kasalliklari shifoxonasiga joylashtirdi” mazmunidagi xabarlar tarqaldi.

Holat yuzasidan o‘rganish o‘tkazilganda murojaatda keltirilgan fuqaro Barno Abdullaeva murojaat bilan hokimlikka kelgan vaqtida sog‘ligi tufayli hushini yo‘qotgan va tuman tibbiyot birlashmasi shifokorlari tomonidan birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatilib, shifoxonaga olib ketilgan. Holat bo‘yicha hech kim mas‘ullarga hech qanday ortiqcha ko‘rsatma yoki ruxiy-asab kasalliklari shifoxonasiga yotqizish bo‘yicha topshiriq bermagan.

Fuqaro B.Abdullayevaning viloyat hokimiga qilgan murojaatiga asosan uning 3 xonali yashash xonadoni ta‘mirlab berilgan va har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish choralari ko‘rib kelinmoqda. Bu haqida fuqaro OAV vakillariga bergan intervyularida ham ta‘kidlab o‘tgan.

Shuningdek, shu o‘rinda fuqarolarning ortiqcha sarson bo‘lib, uzoq yo‘ldan viloyat markazi yoki boshqa hududlariga kelishini oldini olish hamda ko‘proq murojaatlarni tinglash maqsadida Surxondaryo viloyati hokimi tomonidan onlayn formatdagi qabullar o‘tkazib kelinayotganligini ma‘lum qilamiz.